

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING "BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANINI O'QITISHDAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLARI

A.X.Rajabov

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Informatika" kafedrasida katta o'qituvchisi.

rajabovasliddin254@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11271506>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan tashkiliy muammolar, kasbiy muammolar va ularni hal qilish jarayonlari haqida so'z yuritiladi.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishga qaratilgan jarayonlar haqida so'z yuritiladi.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются организационные проблемы, профессиональные проблемы и процессы их решения, возникающие в процессе обучения информатике в начальных классах. Речь идет о процессах, направленных на преподавание информатики и информационных технологий в высших учебных заведениях, которые готовят учителей начальных классов.

Annotation:

This article discusses organizational problems, professional problems and their solution processes that arise in the process of teaching computer science in elementary grades. We are talking about the processes aimed at teaching computer science and information technology in higher education institutions that train primary school teachers.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinflar, informatika fanining boshlang'ich elementlari, informatika o'qitish metodikasi, texnik ta'minot, ta'lim rejasi, kompyuter savodxonligi, texnika xavfsizligi, kompyuter texnologiyalari.

Ключевые слова: начальный класс, элементарные элементы информатики, методика преподавания информатики, техническое обеспечение, учебный план, компьютерная грамотность, безопасность техники, компьютерные технологии.

Keywords: elementary grade, elementary elements of computer science, methods of teaching computer science, technical support, curriculum, computer literacy, safety of equipment, computer technology.

KIRISH

O'zbekiston prezidenti 2023 yil 26-may kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risidagi qarorni imzoladi¹. Bu qarorda maktablarning boshlang'ich sinflarida Informatika fanini joriy etish haqida so'z

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2023 yildagi PF-79-son

yuritiladi. Bu qaror asosida 2023 yil yangi o'quv yilidan boshlab 1-sinf o'quvchilari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fani joriy etildi.

Maktabning birinchi sinfidan alifboni o'rgatilgani kabi Informatikaning boshlang'ich tushunchalarini berib borish o'quvchilarning axborot olami sirlaridan baxramand bo'lishiga dastlabgi qadam bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aksariyatini ayollar tashkil etishini hisobga olib, ularning jamiyatdagi o'rni, farzandlarimiz ta'lim va tarbiyasi yo'lidagi mashaqqatli mehnatini e'tirof etish lozim.

Taniqli Qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov ayollar haqida fikr yuritar ekan quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ideal ayol deganda men hamisha ziyolilik darajasini birinchi o'ringa qo'yanman. Aqliy salohiyatini ham, albatta. Umuman, ideal bosqichma-bosqich, uzoq va ko'p sonli kuzatishlar asosida shakllanadi".

Yer yuzida "Quroni karim"dan keyin turadigan "Sahuhul Buxoriy" kitobining muallifi bo'lgan Imom Ismoil Al-Buxoriyning onasi uch yoshli ko'zi ojiz farzandini har kuni sahar vaqti ko'chaga olib chiqib masjidga ketayotgan insonlarga qo'shib yuborardi. Buxoriyning butun dunyoga tanilishida onasining xizmati beqiyos bo'lgan. Allohga iltijo qilib o'g'lining ko'z nurini qaytarishini so'raydi, va bu duosi ijobat bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

A.A.Abduqodirov, G.U.Umarovning "BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INFORMATIKA ELEMENTLARINI O'QITISH METODIKASI" nomli metodik qo'llanmasida boshlang'ich ta'limda "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning afzalliklari haqida so'z yuritadi va quyidagilarni sanab o'tadi.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rgatishning afzalligi shundaki, u:

- o'quvchilarning darsda faol qatnashishlarini, o'zlashtirish sifatining oshishini;
- boshlang'ich ta'lim uchun yaratilgan elektron darsliklar yordamida darslarni qiziqarli tashkil qilishni;
- o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanib borishini;
- darsda o'quvchilarning informatsion tushunchalarini shakllanishini;
- darsning sifat va samaradorligining oshishini ta'minlaydi.

Shu bois ham boshlang'ich ta'limda informatika kursi quyidagi yo'nalishda o'rganilishi afzal hisoblanadi:

1. O'quvchilarda axborot yoki informatsion jarayonlar to'g'risida umumiy tasavvurlarni shakllantirish;
2. O'quvchilar tomonidan kompyuter bilan o'zaro munosabatda bo'lish usullarini o'zlashtirib borilishi va turli axborot muharrirlari bilan tanishib borishi;
3. Algoritmik yo'nalish-ijrochi uchun algoritmlarni o'ylash va yozishni rivojlantirish².

MUXOKAMA

Bizga ma'lumki Respublikamizning barcha maktablarida boshlang'ich sinflarda deyarli 99% ayol o'qituvchilar faoliyat yuritadi. Quyida keltiriladigan muammo va kamchiliklarni bevosita ayol o'qituvchilarning muammosi sifatida qabul qilishimiz mumkin deb hisoblayman.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023 yilda Respublikamizdagi maktablar soni 10 163 tani tashkil qiladi. Bu maktablarning 1-sinfiga 2023 yilda 689 726 nafar bolalar qabul qilingan. Agar har bir sinfdagi o'quvchilar sonini taxminan 30 ta deb oladigan bo'lsak, bu 22990 ta sinfni tashkil etadi. Agar har bir sinf uchun bir o'qituvchi dars berishini hisobga oladigan bo'lsak 22990 ta boshlang'ich sinf o'qituvchisi "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanidan dars berib kelmoqda.

2023-yilning 25-avgustiga qadar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining mazmun-mohiyati bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirish vazifalari yuklatildi. Qisqa muddatli o'quv kursida olingan bilimlar asosida "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fani o'qitilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda Oliy ta'lim muassasalarining "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishlarida "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fani o'qitilib kelinmoqda.

Jumladan: Davlat ta'lim muassasalaridan Nizomiy nomidagi TDPU, Jizzax pedagogika instituti va boshqa pedagogika institutlarida boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fani tanlov fani sifatida o'qitilmoqda va bu fanga 120 soat ya'niy 4 kredit modul ajratilgan. Bunda 10 soat ma'ruza va 20 soat amaliy mashg'ulot darslari, qo'yilgan. Xususi universitetlardagi "Boshlang'ish ta'lim" yo'nalishlarida ham "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fani tanlov fani sifatida qo'yilgan. Ammo shuni afsus bilan aytish mumkinki, TAFU "Boshlang'ich ta'lim" yonalishi 2023-2024 o'quv yili uchun qabul qilingan o'quv rejasida bu fan majburiy fan sifatida ham, tanlov fani sifatida ham kiritilmagan. Buning oqibatida 2023-2024 o'quv yilida qabul qilingan "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishidagi talabalar quyidagi bilimlarni egallay olmaydilar va qo'shimcha ravishda mustaqil o'rganishga majbur bo'ladilar:

- Barcha fanlardan elektron taqdimotlar yaratish va ulardan foydalanish. MS Power point, Canva, Prezi va boshqalar;
- Normativ xujjatlarni (yillik kalendar rejalar, dars rejasida, tarqatma materiallar) tayyorlash. MS Word, MS Excel, MS Access va boshqalar;
- Ta'lim platformalarida o'quvchilar va ota-onalar bilan ishlash. Kundalik.com;
- Online testlar va so'rovnomalar yaratish va ulardan foydalanish. Google forms, Google doc, Google sheet va boshqalar;
- Online o'yinlar va viktorinalar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish. Wordwall, AhaSlides, GimKit ham, TriviaMaker va boshqalar;
- Kompyuter va kompyuter texnologiyalaridan, axborotlardan oqimidan samarali va to'g'ri foydalanish va boshqalar.

NATIJA

Agar boshqa oliy ta'lim muassasalari kabi TAFU "Boshlang'ish ta'lim" fakulteti o'quv rejasiga "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanining kiritilishi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga quyidagi imkoniyatlar taqdim etadi:

- Mehnat faoliyatiga kirishishda boshqa ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan bema'lol raqobatga kirisha olish;
- Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan ta'lim jarayonida samarali foydalana olish;

- Ta’lim jarayonini rang-barang va qiziqarli qilib o‘tkazish va o‘quvchilar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuqori ko‘tarish;
- Mehnat jamoasida o‘z o‘rnini topa bilish;
- O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda o‘z bilim va ko‘nikmalaridan foydalanish.

XULOSA

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o‘zining asarlarida farzand tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, ta’lim va tarbiyaga shunday ta’rif beradi; “Ta’lim - so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi. Ta’lim-tarbiya ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi so‘zlar va majbur etish”. Bu ta’rifdan shunday xulosa qilish mumkinki, ta’lim o‘rganish va o‘rgatishdan iborat, tarbiya esa amaliyot va ko‘nikmalarni ixtiyoriy va majburiy singdirishdan tashkil topadi.

Respublikamizning barcha maktablarida aksariyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari xotin-qizlardan iborat ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, yuqorida keltirilgan muammolar pedagog ayollar muammosi deb bemalol ayta olamiz. Ta’lim tarbiya jarayonidagi har bir shaxs o‘z vazifasini sidqidildan bajarar ekan, bu kabi muammolar o‘z yechimini topadi deb o‘ylayman.

Адабиётлар руйхати:

1. A.A.Abduqodirov, G.U.Umarovanning “BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INFORMATIKA ELEMENTLARINI O‘QITISH METODIKASI” nomli metodik qo‘llanma.
2. https://kitobsevar.uz/kxpv/xrpt_0b4grcednhkvzke4paxjt0t92e2oupptj20l6d1dnk4zpvfrioay09nd15ygjgzu8y743x7f91.pdf
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2023 yildagi PF-79-son.
4. <https://www.tdpu.uz/faculties/100>
5. <https://jdpu.uz/ru/universitet/boshlangich-talim-yonalishining-umumiy-tavsifi/>